



TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHISINI KASBIY-METODIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISHDA BADIY TAFAKKUR ELEMENTLARI O'RNI

Bekmuratov N.A.

Andijon davlat pedagogika instituti

“Tasviriy san’at va musiqa ta’limi” kafedrası o’qituvchisi

Tayanch soʻzlar: badiiy tafakkur, falsafiy, zamonaviy, estetik tarbiya, kreativ, ilmiy, falsafiy, zamonaviy, pedagogik, psixologiya, strategiyasi, qadriyatlar, didaktik imkoniyatlar, metodologik.

Ключевые слова: художественное мышление, философское, современное, эстетическое воспитание, творческое, научное, философское, современное, педагогическое, психология, стратегия, ценности, дидактические возможности, методологические.

Key words: artistic thinking, philosophical, modern, aesthetic education, creative, scientific, philosophical, modern, pedagogical, psychology, strategy, values, didactic possibilities, methodological.

РЕЗЮМЕ:

Ushbu maqola hozirgi zamonda dolzarb bo'lib hisoblangan masala, ya'ni, tasviriy san'at o'qituvchisini kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirishda badiiy tafakkur elementlari o'rni haqida yoritilgan.

РЕЗЮМЕ:

В данной статье рассматривается вопрос, который считается актуальным в настоящее время, а именно: роль элементов художественного мышления в совершенствовании профессионально-методической подготовки учителя изобразительного искусства.

SUMMARY:

This article covers an issue that is considered relevant nowadays, the role of elements of artistic thinking in improving the professional-methodical training of a visual arts teacher.

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarida badiiy tafakkur elementlarini shakllantirishga tayyorlash uchun dastlab ularni ma'naviy-axloqiy, madaniy jihatdan shakllantirish muhim pedagogik ahamiyatga ega. Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyevning yoshlik davrida olinadigan bilimlar hususida “Bolalarni yoshligidan ma'nan va jismonan yetuk shaxs etib tarbiyalash maqsadida maktablarni badiiy adabiyotlar bilan ta'minlash, ayniqsa, boshlang'ich sinflarda musiqa, tasviriy san'at va jismoniy tarbiya mashg'ulotlariga yangi mazmun berish muhimdir” degan so'zlari bejiz emas [1].

Masala shu qadar dolzarb ekan bolalarni ta'limning eng quyi bosqichidanoq ma'naviyatini yuksaltirish bilan birga badiiy tafakkur elementlarini shakllantirish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, bolani ma'naviyatini shakllantirishda yetuk badiiy asarlarni o'rni beqiyosdir. Bundan kelib chiqib, bolalarning tasviriy san'atga qiziqishini ta'limga yo'naltirish, badiiy tafakkur orqali ta'lim berish bilan bir qancha samaradorlikka erishish mumkin.

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisini kasbiy metodik tayyorgarligini takomillashtirishda jahonga mashhur geograflar, tarixchi, adabiyotchi, shoir, yozuvchilar, konstruktor va boshqa soha allomalari rasm-chizmalari bilan tanishmoqlari darkor. Beruniy, Ibn Sino, Ulug'bek, Gyote, Gyugo, Anderson, Pushkin, Tagor, Mikluxo-Maklay, Mendeleev, B.Zokirov kabi turli soha ijodkorlari shular jumlasidandir. Fransuz faylasufi Didro «Qaysi bir mamlakatda rasm chizishni o'qish-yozish kabi bilsalar edi, bu mamlakat barcha sohalarda har qanday mamlakatni quvib yetadi va ortda qoldiradi» - degan edi [2, 12-bet]

Barcha zamonlarda pedagogika fani insonni komil shaxs sifatida shakllantirish masalasiga ustuvor vazifa sifatida qarab kelgan, faqat jamiyat taraqqiyotining muayyan bosqichida bu talimiy va tarbiyaviy vazifalarning mazmunida yangi komponentlar kun tartibiga qo'yilgan. Bugungi kunda kreativ fikrlaydigan yosh avlodni shakllantirish ta'lim va tarbiya tizimining uch ustuvor vazifasi sifatida e'tirof etilmoqda. Shu ma'noda, ta'lim jarayonini tahlil etish talab etiladi.

Chunki bugungi yoshlar nafaqat moddiy olamni ilmiy jihatdan o'zlashtirishga layoqatli shaxs sifatida, balki bo'lajak mutaxassislariga o'z hayoti va faoliyati uchun tayanch bo'ladigan asosiy bilimlarni o'zlashtirish zaruriyatini ham qo'ymoqda. «Shuning uchun ham bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini maktab o'quvchilarida badiiy tafakkur elementlarini shakllantirishga tayyorlash muayyan kasbiy pedagogik asoslarga ega bo'lishi talab etiladi»[3]. Bu asoslar ilmiy, falsafiy, zamonaviy yo'nalishlarni o'zida mujassamlashtiradi. Shu o'rinda bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini maktab o'quvchilarida badiiy tafakkur elementlarini shakllantirishga tayyorlash jarayoniga keng qamrovli pedagogik hodisa sifatida yondashish talab etiladi.

«Badiiy tafakkur va uning shakllanishini o'rganishni falsafa, psixologiya, pedagogika fanlari hamkorligida amalga oshirish ushbu jarayonning samarasini ta'minlaydi» [3]. Bunda o'quvchilarning aqliy faoliyatini tashkil etish masalasi katta ahamiyatga ega. Shu sababli mavjud adabiyotlardan tafakkur, badiiy tafakkur, uning mohiyati, shakllanish hususiyatlari va imkoniyatlarini o'rganish sohada amalga oshiriladigan tadqiqotlarning o'ziga xos metodologik asosi bo'ladi.



«Shuni alohida ta'kidlash kerakki, bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlash sohasidagi tajribalar maktab o'quvchilarida badiiy tafakkur elementlarini shakllantirish va iqtidorlarini ro'yobga chiqarish strategiyasini tanlashga bevosita ta'sir ko'rsatadi»[4]. Buning uchun pedagogika fanida to'plangan tajribalarni nazariy jihatdan tahlil qilish alohida ahamiyatga ega. Aynan shunday tahlil bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy faoliyat strategiyasini ongli tanlashiga imkoniyat yaratadi.

O'zbekistonlik olimlar - M.Axmedov, S.R.Bekmatovlarning ishlarida estetika va estetik tarbiya masalalari o'quvchilarni badiiy qadriyatlar bilan tanishtirish jarayonida ochib berilgan. Ayniqsa, N.V.Gilmanovanning tadqiqotlarida badiiy idrok, badiiy tafakkurning muhim parametrlaridan biri-rang va yorug'lik munosabatlariga oid ilmiy g'oyalar, xulosalar hamda olingan amaliy natijalar e'tiborga molik. A.P.Sulaymonovning izlanishlarida tasviriy san'at vositasida tarbiyaning turli tomonlari jumladan, «tasviriy san'at ta'limi sifati va samaradorligini oshirishning didaktik imkoniyatlari, badiiy tafakkurning muhim elementlari-zamonaviylik va tarixiylik, Sharq va G'arb tasviriy san'atining sintezi» masalalari tadqiq etilgan bo'lsa, S.X.Fayzulinaning izlanishlarida O'zbekistonda estetik tarbiyaning shakllanishi va rivojlanishining metodologik jihatlarini taqqiq etilgan. R.Xasanovning tadqiqotlarida tasviriy san'at darslarida mahalliy materiallardan foydalanish masalalari, O.M.Jabborova tadqiqot ishlarida badiiy idrok etish muammolariga e'tibor qaratilgan.

«Maktab o'quvchilarida badiiy tafakkur elementlarini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon nafaqat madaniyat va san'atdagi estetik hodisalarni badiiy idrok etish», balki ularni atrof-olamda sodir bo'layotgan voqealarni adekvat anglash, ularga shaxsiy munosabat bildirishni o'rgatadi. O'quvchilar badiiy tafakkur yordamida ob'yektlar o'rtasidagi muhim aloqalar va munosabatlarni anglaydilar. Bu kompetensiyaularning intellektual qobiliyatlarini o'sishiga olib keladi. Shuning uchun ham mazkur ilmiy muammoni o'rganish nazariy ahamiyatga ega.

N.V.Bigus, N. N.Sal, A.N.Biguslarning fikricha, «badiiy tafakkur, birinchi navbatda, badiiy idrok etish jarayonida birlikda umumiy va tasodifiyda muhimni aniqlashdir. Bu odatiylikni aniqlashda (predmetlar va hodisalarning ushbu guruhi uchun umumiy belgilarning mavjudligi) barcha o'ziga xos sifatlar, belgilar bilan umumlashtirilgan badiiy obrazni yaratish (qayta yaratish) va aniqlash hamdir». Badiiy tafakkurga tahlil qilinayotgan, idrok etilayotgan asarni qismlar va elementlarga ajratish sifatida qaraymiz. Ushbu jarayonda biz bir hodisaning (badiiy tafakkurning) ikki tomonini (tahlil va sintez qilish), jarayonning muhim tomonlarini ko'ramiz.

Badiiy tafakkur san'at asarining badiiy g'oyasini materiallashtirishga qaratilgan yorqin obrazli tafakkur turi hisoblanadi. Bu g'oyaning obrazli ifodalanishi, idrok etuvchi shaxsning o'ziga xos badiiy-estetik faoliyatidan boshqa narsa emas.

Tafakkur, xususan, badiiy tafakkur – aqliy, ma'naviy va umumiy badiiy-estetik rivojlanishining muhim omilidir. O.M.Jabborovanning fikricha, «aqliy rivojlanish badiiy idrok etish jarayonida talabalarning qiziquvchanlik, tirishqoqlik, chaqqonlik va harakatchanlik, mantiqiy hamda tanqidiy tafakkur kabi sifatlari rivojlanadi hamda takomillashadi, umuman olganda, shaxs rivojlanadi. Ko'rsatib o'tilgan sifatlardan tashqari badiiy tafakkur orqali shaxsning hayotiy tajribasi takomillashadi, qiziqishlari doirasi kengayadi, hissiyotlari kuchayadi (emosional-estetik), ular chuqurlashadi, tafakkur darajasi oshadi (ular yanada mukammal bo'ladi), irodasi kuchayadi, aqliy madaniyati sezilarli darajada o'sadi, aqliy faoliyati faollashadi (san'at sohasidagi bilimga intilishi; yangilikni, o'ziga xoslikni, ajoyiblikni ko'ra bilishi, uning mohiyatini tushunishi, asosiysini, muhimini tushunib yetishi, ajratib ko'rsatishi; faqatgina badiiy idrok etish emas, balki umuman tafakkur amaliyotida turli operatsiya turlarini qo'llashi)».

Shunday qilib, badiiy tafakkur san'at to'g'risida, uning aniq bir turi to'g'risidagi bilimlarni talab etadi. Badiiy tafakkur bevosita san'at asarini emosional idrok etishdan boshlanadi. Unda, albatta, hukm elementi mavjud bo'ladi. Badiiy tafakkurning markaziy bo'g'ini- mantiqiy-tahliliy tafakkur shakllanadi.

Shu bilan birga, badiiy tafakkur idrok etuvchining nazariy hamda amaliy bilim darajasini oshirishga yo'naltiruvchi vosita bo'lib xizmat qiladi.

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini tarbiyalash va rivojlantirishning asosiy maqsadlaridan biri – ularni yuksak kasbiy mahoratga ega bo'lgan mutaxassis sifatida shakllantirishdan iborat. Bo'lajak o'qituvchilarning shaxsiy sifatlari kasbiy mahoratiga qo'yilgan talablardan biridir.

Shu bilan birgalikda o'qituvchining kasbiy kompetentligi undagi professionalizmning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Unda bo'lajak o'qituvchining nazariy va amaliy tayyorgarligi uyg'un tarzda namoyon bo'ladi. Kasbiy kompetentlik shakllanmagan taqdirda o'qituvchi o'z faoliyatini talab darajasida amalga oshira olmaydi. Amaldagi mavjud yondashuvlarga ko'ra o'qituvchining professionalizmi yaxlit tarzda intellektual, hissiy, harakatli-irodaviy holatlarini ifodalaydi. Chunki mazkur holatlar o'qituvchi faoliyatining barcha yo'nalishlarini o'zida mujassamlashtiradi. Ayniqsa, uning kasbiy o'sishi va mahorati ushbu tizimda yaqqol namoyon bo'ladi.



Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilari dars mashg'ulotlarini mavzudan kelib chiqqan holda o'ziga xos zamonaviy pedagogik texnologiyaga, didaktik prinsiplarga va metodik uslublar asosida olib borilsa ko'zlangan natijaga erishishning aniq yo'li hisoblanadi. Shunday ekan ular zamon bilan hamnafas bo'lish bilan birga maqsadga erishishni kafolatlaydigan, natijani oldindan ko'ra oladigan pedagogik jarayonning loyihasi hisoblangan pedagogik texnologiyadan unnumli foydalana olishi muhim.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2020 yil 2 mart kuni xalq ta'limi tizimidagi ustuvor vazifalar muhokamasiga bag'ishlangan yig'ilishi. // O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti. president.uz
2. Sitata N.Rostotsevning «Maktabda tasviriy san'atni qitish metodikasi» kitobidan olindi. M., 1998-y. 12-bet.
3. Структура и особенности художественного мышления студентов. <http://elibrary.ru/item.asp?id=17865470> (мурожаат санаси 20.02.2021)
4. Эстетика – это не только философия искусства. <http://elibrary.ru/item.asp?id=9244166> (мурожаат санаси 28.09.2021)
5. Hasanov R. Tasviriy san'at asoslari. -T.: G'ofur G'ulom. 2009.-204 b.
6. Komenskiy Ya.A. Избранные педагогические сочинения. В 2-х томах. - М.: Учпедгиз, 1999. - 320с.
7. Rostovsev N.N. Методика преподавания изобразительного искусства в школе: Учебник для студентов худож. - граф. фак. пед. институтов. 2-е изд., доп. И перераб. - М.: Просвещение, 1980. - 239с.
8. Oripov B.N. Tasviriy san'atni o'qitishning zamonaviy pedagogik texnologiyasi, didaktikasi va metodikasi. –N.: “NamDU”, 2012. -124 b.
9. Oripov B.N. Tasviriy san'atning o'qitishning zamonaviy pedagogik texnologiyasi, didaktik metodikasi T. “Ilm-ziyo.